



**IQTIDORLI TALABALAR,
MAGISTRANTLAR, TAYANCH
DOKTORANT VA DOKTORANTLARNING
“TAFAKKUR VA TALQIN”**

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI
ILMIY-AMALIY ANJUMAN
TO‘PLAMI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

**IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR,
TAYANCH DOKTORANTLAR VA
DOKTORANTLARNING**

TAFAKKUR VA TALQIN
mavzusida

*respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy
anjuman to‘plami*

Buxoro 2025-yil, 15-may

chuqurlikda ekiladi. Maysalar ko'rinishgacha harorat +20 +25 °C, ko'kargach +10 +15 °C da saqlangani ma'qul. Ko'chatlar zarur bo'lsa siyraklashtiriladi. Pomidor ko'chatlari 40-45 kunlik, poyasi va ildizlari durkun rivojlangan, barglari to'q yashil tusda, sog'lom bo'lgan ko'chatlarni ekish lozim. Pomidor ko'chatlari 40-45 kunlik, poyasi va ildizlari durkun rivojlangan, barglari to'q yashil tusda, sog'lom bo'lishi lozim.

Ekish muddati va sxemasi

Respublikamizning janubiy viloyatlarida ertaki navlar martning III o'n kunligida, o'rta va kechpishar navlar aprelning I-II o'n kunligida; markaziy mintaqada joylashgan viloyatlarda ertapishar navlar aprelning I o'n kunligida, o'rta va kechpisharlari aprelning II-III o'n kunligida hamda mayning I-II o'n kunligida, urug' bilan ochiq maydonga aprelning I o'n kunligida; shimoliy mintaqalarda ertapishar navlar aprelning II o'n kunligida, o'rta va kechpisharlari aprelning III o'n kunligida, mayning I o'n kunligida va urug' bilan ochiq maydonga aprelning II o'n kunligida ekiladi.

Pomidorning ertapishar va o'rtapishar navlari u qadar nishab bo'lmagan dalalarda 70×25 sm, tekis maydonlarda 90×25 sm, uzun palakli navlar 90×40 sm sxemada ekiladi.

Ekilgandan keyin ko'chatlarni albatta sug'orish zarur. 1 gektar maydonga ekish sxemasiga qarab 47619-57142 dona ko'chat sarflanadi.

Parvarishlash

Ekilgandan keyin ko'chatlarni albatta sug'orish zarur. Oradan 10–12 kun o'tgach, birinchi ishlov beriladi. Bunda qator oralari KRN-2,8A, KXO-4, KON-2,8A rusumli agregatlar bilan 12-14 sm chuqurlikda yumshatiladi.

O'simliklar atrofi ham yengil yumshatilib, mineraloziqalar solingach sug'oriladi. 13–15 kundan keyin yana sug'oriladi va tuproq yetilishi bilan ikkinchi ishlov o'tkaziladi. Bunda qator oralari kultivator bilan 15-16 sm chuqurlikda yumshatilib, begona o'tlarni yo'qotish uchun yaxshilab chopiq qilinadi.

PHPDA MySQL BERILGANLAR BAZASI BILAN ULANISH USULLARI VA U BILAN ISHLASH IMKONIYATLARI

Raximov Abduhamid Abdurashid o'g'li,

BuxDU, Amaliy matematika mutaxassisligi magistranti

a.a.raximov@buxdu.uz

Xayatov Xurshidjon Usmanovich

BuxDU, Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasida o'qituvchisi

x.u.xayatov@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Web dasturlash bo'yicha berilganlar bazasi bilan ishlaydigan foydalanuvchilar uchun ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: PHP, PDO, MBBT, MySQL, SELECT, extends, sinf, obyekt, funktsional, kontsruktor, destruktur, metod, maydon, atribut.

PHP da sahifani namoyish etishda uning dizayni, ma'lumotlarni berilishi alohida ahamiyatga ega. Biroq, ma'lumotlarni berilganlar bazasida tizimlashtirilgan holda saqlash va undan foydalanilganda tushunishimiz, sahifani o'zgartirishimiz osonroq.

MySQL — bu ochiq manbali, tez va ishonchli **ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi** (MBBT) bo'lib, asosan web-ilovalarda ma'lumotlarni saqlash va boshqarish uchun ishlatiladi.

PHP orqali MySQL ga ulanish yo'llarini ko'rib chiqamiz:

MySQL ma'lumotlar bazasiga klassik usulda ulanish

```
<?php /* Klassik usulda ulanish */
```

```
/* Ma'lumotlar bazasi bilan ulanadigan o'zgaruvchilar */
```

```
$hostname = "localhost";
```

```
$username = "user";
```

```
$password = "password";
```

```

$dbName = "world";

/* Ulanishni yaratish */
mysql_connect( $hostname, $username, $password) or die("Ulanishni yaratib bo'lmadi");

/* Bazani tanlashda xatolik yuz bersa — xatolikni xabarini chop etadi*/
mysql_select_db($dbName) or die(mysql_error());

/* So 'rovni bajarishda xatolik yuz bersa — xatolikni xabarini chop etadi */
$result = mysql_query( 'SELECT Name, Area FROM Country ORDER BY Area DESC LIMIT
5') or die(mysql_error());

echo "Dunyoning eng katta beshta davlati: <br> ";

/* So 'rov natijalarini chiqarish */
while( $row = mysql_fetch_assoc($result) ){
    echo $row['Name']." maydoni ". $row['Area']." km<sup>2</sup>.<br>";
}

/* Foydalanilgan xotirani tozalash */
mysql_free_result($result);

/* Ulanishni yopish */
mysql_close();
?>

```

MySQL ma'lumotlar bazasiga zamonaviy usulda ulanish

Mysqli kengaytmasidagi funksiyalardan foydalanish ma'lumotlar bazasi bilan ishlashni tezlashtiradi, ba'zan esa klassik usulga nisbatan ishlash samaradorligini **40 barobargacha oshiradi**. Bundan tashqari, ma'lumotlar bilan ishlashda **xavfsizlik darajasi oshirilgan** va **yangi funksiyalar** qo'shilgan.

<?php /* Zamonaviy usulda ulanish */

```

/* MySQL serveriga ulanish */
$link = mysqli_connect(
    'localhost', /* Ulanilayotgan host (server manzili)*/
    'user',      /* Foydalanuvchi nomi */
    'password', /* Parol */
    'world');    /* ma'lumotlar bazasi */
/* Agar ulanishda xatolik bo'lsa, xatolik haqida xabar beradi va sahifani tark et*/
if (!$link) {
    echo "Ma'lumotlar bazasiga ulanishda xatolik. Xatolik kodi: ".mysqli_connect_error();
    exit;
}

/* Serverga so'rov yuborish */
if ($result = mysqli_query($link, 'SELECT Name, Area FROM Country ORDER BY Area
DESC LIMIT 5')) {

    echo "Dunyoning eng katta beshta davlati: <br>";

    /* So 'rov natijalarini chiqarish */

```

```
while( $row = mysqli_fetch_assoc($result) ){
    echo $row['Name']." maydoni ". $row['Area']. " km<sup>2</sup>.<br>";
}
```

```
/* Foydalanilgan xotirani tozalash */
mysqli_free_result($result);
}
```

```
/* Ulanishni yopish */
mysqli_close($link);
?>
```

Endi PHP orqali MySQL bazasiga ulanishni PDO usulini ko`rib chiqamiz. Bu usul orqali xohlagan berilganlar bazasiga ulanish mumkin. Biz faqat MySQL ga ulanish bilan cheklanamiz.

```
<?php
try { // Serverga ulanish
    $conn = new PDO("mysql:host=localhost", "root", "");
    echo "Ma'lumotlar bazasi ulanishi o'rnatildi";
}
catch (PDOException $e) {
    echo "ulanish amalga oshmadi: " . $e->getMessage();
}
?>
```

Bu kodda bazaga PDO usulda ulanish keltirilgan.

Endi biz ulanishni bajarganimizdan keyin MySQL da so`rovlarni yuborishni ko`rib chiqamiz. Misol tariqasida jadval yaratishni ko`ramiz.

```
<?php
try { // Serverga ulanish
    $conn = new PDO("mysql:host=localhost;dbname=KIDT_2024", "root", "");

    // Jadval yaratish uchun SQL ifoda
    $sql = "create table users (id integer auto_increment primary key, name varchar(30), age integer);";
    // SQL ifodasini bajarilishi
    $conn->exec($sql);
    echo "users jadvali yaratildi";
}
catch (PDOException $e) {
    echo "Ma'lumotlar bazasida xatolik: " . $e->getMessage();
}
?>
```

Misolimizda ko`rsatilgan qoida orqali, INSERT, UPDATE, DELETE, ALTER, CREATE, DROP va h.k. bajarilishi kerak bo`lgan so`rovlarni yubora olamiz.

Endi bitta SELECT so`rovini bajarilishi ko`rib chiqamiz.

<h2>Foydalanuvchilar ro'yxati</h2>

```
<?php
try {
    $conn = new PDO("mysql:host=localhost;dbname=KIDT_2024", "root", "");
    $sql = "SELECT id, name FROM Users";
    $Natija = $conn->query($sql);
    echo "<table><tr><th>Nomi</th><th></th></tr>";
    foreach($Natija as $Satr){
```

```

        echo "<tr>";
        echo "<td>" . $Satr["name"] . "</td>";
        echo "<td><a href='user.php?id=" . $Satr["id"] . "'>Ko`rish</a></td>";
        echo "</tr>";
    }
    echo "</table>";
}
catch (PDOException $e) {
    echo "Ma'lumotlar bazasida xatolik: ". $e->getMessage();
}
?>

```

SELECT so`rovini yuborganimizdan so`ng, natijani olishimiz va undan foydalanishimiz yetaridir

Adabiyotlar:

1. Прохоренок, Н. А. HTML, JavaScript, PHP и MySQL. Джентльменский набор Web-мастера. — 5-е изд., перераб. и доп. / Н. А. Прохоренок, В. А. Дронов. - СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 912 с.: ил. - (Профессиональное программирование)
2. Котеров, Д. В. PHP 8 / Д. В. Котеров, И. В. Симдянов. - СПб.: БХВ-Петербург, 2023. - 992 с.: ил. -(В подлиннике).
3. <https://metanit.com> - Сайт о программировании.

FAUNA AND CONSERVATION OF GAME ANIMALS IN UZBEKISTAN (BY THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION)

*Nigina Ro'ziqulova Obidjon qizi,
Buxoro davlat universiteti magistranti
n.o.roziqulova@buxdu.uz*

Annotation. The article examines and summarizes the collected preliminary materials on the fauna of game animals and their protection in the Bukhara region. Recommendations have been made aimed at maintaining the stability of the population of mass hunted game animals in the region and their protection.

Key words: population, game animals, quota, ecology, hunting.

O'ZBEKISTONDA OVLANADIGAN HAYVONLAR FAUNASI VA MUHOFAZALANISHI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)

Annotatsiya. Maqolada Buxoro viloyatida ovlanadigan hayvonlar faunasi va ularning muhofazalanishiga doir yig'ilgan dastlabki materiallar muhokama qilingan va xulosalangan. Viloyatda ko'p sonda ovlanadigan hayvonlar populyasiyasining barqarorligini saqlab qolishga va ulami muhofaza qilishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: populyasiya, ovlanadigan hayvonlar, kvota, ekologiya, ovchilik xo'jaligi.

Kirish. Dunyo miqyosida biologik xilma-xillikning muhim tarkibiy qismi sanalgan hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish masalasiga bugungi kunda alohida e'tibor qaratilmoqda. Hayvonot dunyosidan ov qilish maqsadida keng va ba'zan nooqilona foydalanish, ov xo'jaliklarini yuritish sohasidagi mavjud muammolar ko'pchilik hollarda turlarning qirilib ketishiga yoki sonini kamayishiga sabab bo'ladi va ba'zan ular noyob yoki yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlarga aylanadi. Mazkur masalalari o'rganish va ulami hal qilish bo'yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqish, hayvonlarni muhofaza qilish va ulardan barqaror foydalanish, ovchilik xo'jaliklari yuritishni optimallashtirish aholining iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini oshirishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Ovchilik xo'jaliklarini boshqarish jarayonida zamonaviy uslublar va texnologiyalardan foydalanish natijasida turlarning sonini va ularning yashash muhitining barqarorligini saqlashga erishish mumkin.

Nuriddinova Shahzoda Jamshid qizi Nosirova Nargiza Gayratovna Fayziyev Shaxobiddin Shavkatovich	Kuchsiz magnitikda yorug'likning yutilishi168
Niyazxonova Bashorat Eshmamatovna Obloqulova Mehinbonu Talant qizi	Lazerlarning yaratilish tarixi va qo'llanish sohalari.....169
Mahmudova Dilnura Ma'ruf qizi Nazarov Erkin Sadikovich	Polipropilenning strukturaviy modifikatsiyasi va hosil bo'lgan materiallarning xususiyatlari171
K.R.Qahorova	Uzluksiz vaqtli chiziqli dinamik sistemalarning barqarorligini Lyapunov usuli asosida tahlil qilish173
Turdieva Gavhar Saidovna Ruziyeva Gulchiroy Rizo qizi	Matematika fanini o'qitishda gamifikatsiyadan foydalanishning afzallik va kamchiliklari.....175
Baqoyeva Oqila Barot qizi	Makkajo'xori o'simligida uchraydigan zararkunandalarning turlari va qisqacha tavsifi.....179
S.O. Saidov F.A. Hakimboyev	High-temperature diffusion of manganese into kdb-3 silicon: structural and plasmonic effects180
Zaynutdinova Dilnoza Kaxramonovna, O'ktamova Zuhro Oltin qizi	Buxoro viloyati relyefining iqlimga ta'siri..... 183
Sh.H. Quliyeva	Oliy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mazmuni185
Ismatov Sunnatulla Quvondiq	Buxoro tuproq iqlim sharoitida pomidor o'simligining o'stirish agrotekhnologiyasini takomillashtirish.....188
Raximov Abduhamid Abdurashid o'g'li Xayatov Xurshidjon Usmanovich	Phpda mysql berilganlar bazasi bilan ulanish usullari va u bilan ishlash imkoniyatlari190
Nigina Ro'ziqulova Obidjon qizi,	Fauna and conservation of game animals in uzbekistan (by the example of Bukhara region)193
Teshayeva Mohidil Botirovna	Tabiiy-ilmiy savodxonlik hamda amaliy kompetensiyalarni shakllantirishning samarali usullari198
Baxshillayev Ozodbek Bobir o'g'li Eshankulov Hamza Ilhomovich Soliyeva Dilsora Alisher qizi	O'zbekistonda vizildoq qo'ng'izlarning o'rganilish tarixi202
Raximova Xolida Karim qizi	Transformer modellarini baholash va tahlil qilish metodlari.....203
Djurayev Davron Raxmonovich Jahonqulova Maftuna Jamshid qizi	Tabiiy fanlarning bugungi kundagi dolzarb muammolari. In vitro misolida206
	Yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchanlikni ifodalovchi modellar va ularni aniq misollarda ifodalash207
Yusufova Gulhoyo Shuhrat qizi	Phi-funksiyalar metodi yordamida optimal kvadratur formula koeffitsiyentlarini aniqlash212
Halimova Gulshan Subhonovna Adizxonova Zeboxon Azim qizi	Antropogen omillarning landshaft gidrologik holatiga ta'siri.....215
Rashidov Negmurod Elmurodovich Bazorova Nazokat Axmadovna	Bioo'g'itlar: o'simliklarning o'sishi va tuproq unumdorligini yaxshilash uchun mikroorganizmlarning ahamiyati218
Gadoyeva M.M. Toshov H.M. Pardayev Sh.	Buxoro davlat universiteti zoomuzeyi eksponatlarining ro'yxatga olinishi, sistematik tahlili.220
Ismoilova Dilnoza Zubayd qizi	Qoramtir qo'ng'izlarning morfologik tuzilishi va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlari (koleoptera, tenebrionidae)222